

**TASVIRIY SAN`AT VA UNING TERMINLARI HAQIDA TUSHUNCHA****Safaraliyeva Mohlaroyim Bahtiyorjon qizi**Tel: 95-092-07-15 [mohlaroysaparaliyeva@gmail.com](mailto:mohlaroysaparaliyeva@gmail.com)<https://doi.org/10.5281/zenodo.13625800>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada San`atning barcha yo`nalishlari haqida qisqacha ma`lumotlar va misollar keltirilgan. Bu maqolada dunyo xalqlari orasida keng tarqalgan san`at yo`nalishlari va mashxur asarlar keng yoritilib berilgan. Maqolamiz har bir kitobxonga yangicha bilim va ko`nikmalar bilan tanishishiga yordam bera oladi degan umiddamiz.

**Kalit so'zlar:** San`at, rang-tasvir, haykaltaroshlik, grafika, rassom, erkin hikoyanavislik.

**CONCEPT OF FINE ART AND ITS TERMS**

**Abstract.** This article contains brief information and information about all areas of art.

This article covers the areas of art that are widespread among the peoples of the world and famous works. Our article provides new knowledge and skills to every reader. We hope that it will help you to get acquainted with.

**Keywords:** Art, painting, sculpture, graphics, artist, free story writing.

**ПОНЯТИЕ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА И ЕГО ТЕРМИНЫ**

**Аннотация.** В статье приведены краткие сведения и примеры из всех областей искусства. В данной статье широко освещены художественные направления и знаменитые произведения, получившие широкое распространение среди народов мира. Мы надеемся, что наша статья поможет каждому читателю познакомиться с новыми знаниями и навыками.

**Ключевые слова:** Искусство, живопись, скульптура, графика, художник, свободное сочинение рассказа.

---

TASVIRIY SAN`AT- rang-tasvir, haykaltaroshlik, grafikani birlashtirgan nafis san`at turi; voqelikni uning osongina ilg`ab olinadigan fazoviy shakllarda ko`rgazmali obrazlarda aks ettiradi.

Tasviriy san`at turlari o`z xususiyatlariga qarab real borlikni obyektiv mavjud sifatlari - hajm, rang, fazo, shuningdek, predmetning moddiy shakli va nurhavo muhiti, harakat va o`zgarishlari hissini yaratadi. Bunda tasvirning hissiy konkretligidan illyuzionizmga o`tish mumkin. Tasviriy san`at faqat ko`rish mumkin bo`lgan narsalarnigina tasvirlab qolmay, balki, asarlarida hodisalarning vaqtinchalik rivoji, uning u yoki bu qismi(fabula), erkin hikoyanavislik, dinamik harakatlarni ham aks ettirib, dunyoni g`oyaviy o`zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tasviriy san`at insonning ruhiy qiyofasini, uning o`zgaralar bilan o`zaro munosabatlarini, tasviriy holatning psixologik va emotsional mazmunini ham yoritadi. Ba`zan mavjud bo`lmagan, rassom tasavvurining mahsuli bo`lgan obrazlarni ham yuzaga keltiradi. Insoniyat tarixidagi turli davrlarni aks ettiradi.

**TASVIRIY SAN`AT JANRLARI.** Tasviriy san`at asarlari mavzusi, mazmuni, ishlanish uslubiga ko`ra turli janrlarga bo`linadi. <<Janr>> so`zi fransuzcha so`z bo`lib, <<tur>> yoki <<ko`rinish>> ma`nosini anglatadi.

Tasviriy san`at janrlarilarning turlariga ham bog`liq. Rangtasvir va grafika quyidagi asosiy janrlarda yaratiladi:

- |           |               |
|-----------|---------------|
| 1.Portret | 5.Batal       |
| 2.Manzara | 6.Animalistik |
| 3.Maishiy | 7.Marinistik  |
| 4.Tarixiy | 8.Natyurmort  |

Agar kartinada aniq bir insonning tashqi qiyofasi tasvirlangan bo`lsa, bunday asar **PORTRET JANRI**ga mansub bo`ladi. Italiyaning mashhur rassomi Leonardo da Vinchining <<Mona Liza>>, Muhammad Nuriddinovning <<Ona>> asari bunga yaqqol misol bo`la oladi.

Tasviriy san`atning eng ommaviy janrlaridan biri **MANZARA JANRI**dir. Unda rassom tabiat go`zalligini tasvirlash bilan birga inson va tabiat munosabatlarini aks ettiradi. Bunga misol: Usmon Mamajonovning <<Oltin kuz>>asari.

Maishiy hayot, turmushdagi voqea va hodisalarni tasvirlovchi tasviriy san`at asarlari **MAISHIY JANR**ga oid hisoblanadi va bu janr insonning yashash muhiti, turmush tarzini o`zida aks ettiradi.

Biror tarixiy voqea yoki tarixiy shaxslarning tasviriga oid tasviriy san`at asarlari **TARIXIY JANR**ga, jang harbiy yurishlar tasviriga oid ishlar **BATAL JANRI**ga, hayvonlar tasviriga oid asarlar **ANIMALISTIK JANR**ga, suvli manzara tasviriga oid asarlar esa **MARINISTIK JANR**ga mansub hisoblanadi.

**NATYURMORT JANRI**dagi asarlarda jonsiz narsalar tasvirlanadi. Natyurmort fransuzcha <<nature morte>>

-<<jonsiz tabiat>> degan ma`noni anglatadi. bularga misol tariqasida Ortiqali Qozoqovning <<Hovlimizda bahor>> va <<Sirdaryo>>, Alisher Aliqulovning <<Sardoba>>, <<Bayroq uchun jang>> va <<Arg`umoqlar>>, Sarvar Sulaymonovning <<Anorli natyurmort>> asarlarini keltira olamiz.

**TASVIRIY SAN`AT USULLARI.** Tasviriy san`at o`zining tasvirlash usullari va boshqa jihatlariga qarab, grafika, rangtasvir va haykaltaroshlik kabi turlarga bo`linadi.

**GRAFIKA.** Tasviriy san`atning eng ommaviy turlaridan biri grafikadir. <<Grafika>> so`zi yunoncha <<yozaman>>, <<chizaman>> degan ma`nolarni anglatadi. Qalamda yoki tushda ishlangan rasmlar, kitob, gazeta va jurnallarga chizilgan illustratsiyalar, biror jismga o`yilgan gravyuralar, plakat, stend, buyumlarning etiketkalari, yorliqlari, oziq-ovqat o`raladigan yozuvli qog`ozlar - bularning barchasi grafika namunalari hisoblanadi.

**RANGTASVIR.** Biror qattiq yuzada rangli ashyolarda va bo`yoqlar yordamida yaratilgan badiiy asarlar turlaridan biri. Rangli voqelikni badiiy tasvirlash va talqin qilish; tomoshabin fikri va tuyg`ulariga ta`sir etishning muhim vositasi; muhim ijtimoiy mazmun va rangbarang g`oyaviy vazifalarga ega.

**HAYKALTAROSHLIK.** Borliqni hajmli shakllarda va makonda uch o`lchamda tasvirlashga asoslanadigan san`at turi. Tasvir ob`yekti, asosan, inson, shuningdek, hayvonlar (animalistika), tabiat (manzara) va jonsiz buyumlar (natyurmort) ni tasvirlashga asoslangan san`at turi.